

## 2019-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinni tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda 13,0 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (20,2 ming birlik) sonidagi ulushi 64,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 21,1 % ga oshdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 9,8 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-aprel holatiga ularning ulushi 58,0 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-aprel holatiga korxona va tashkilotlarning  
umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotganlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,3 %) tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 9,4 % ga yetdi.


Sog'lijni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-aprel holatida xizmatlar sohasida 10,8 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiylar tarkibida savdo sohasida - 32,1 %, tashish va saqlash - 10,2 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,5 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,1 %, axborot va aloqa - 1,9 %, boshqa turlarda - 42,2 % korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

### 2019-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



- Savdo ● Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ● Axborot va aloqa
- Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ● Boshqa turlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 313,4 mlrd. so'mga oshib, 1724,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,0 % ni tashkil etdi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida savdo xizmatlari 32,9 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan ularning hajmi 89,4 mlrd. so'mga oshdi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1724,7</b>	<b>112,0</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	84,6	100,0
Moliyaviy xizmatlar	216,4	159,9
Transport xizmatlari	428,4	104,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	392,7	101,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	74,5	107,3
Savdo xizmatlari	566,7	105,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	47,4	103,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	91,1	168,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,5	110,2
Ijara xizmatlari	46,0	100,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	38,1	103,9
Shaxsiy xizmatlar	37,0	103,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	18,9	108,7
Boshqa xizmatlar	43,1	100,0

2019-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati 168,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (159,9 %), sog'liqni saqlash sohasida (110,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (108,7 %), qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sishi 23,5 % ni, moliyaviy xizmatlarda – 12,7 % ni, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda - 3,7 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rincini tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 566,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 89,4 mlrd. so'mga oshdi.


### Savdo xizmatlari - 100,0 %



Avtomobillar va mototsikllar  
ulgurji va chakana savdosini,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)




Avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 81,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 12,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmida 6,2 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari**




Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahri (170,2 mlrd. so'm), Gijduvon (114,3 mlrd. so'm), Buxoro (35,7,0 mlrd. so'm) va Vobkent (32,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu tumandagi savdo xizmatlari hajmi 8,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi 428,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil etdi.


### **2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**



2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan transport xizmatlarining o'sishi Qorovulbozor (135,2 %), Kogon (118,0 %), Peshko' (107,4 %) va Buxoro (107,4 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda o'sish sur'atlari Kogon shahrida (98,3 %), Buxoro shahri va Romitan tumanlarida (101,7 %) sezilarli emas.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida umumiy xizmatlar hajmida transport xizmatlarining ulushi, %**



Shahar va tumanlar orasida ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlarining eng katta ulushi Qorovulbozor tumani - 59,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, transport xizmatlari ulushining umumiy hajmida o'sishi Kogon tumani (32,5 %), Kogon shahri (26,9 %), Buxoro shahri (26,2 %), Romitan tumani (24,8 %), Olot tumanida (21,6 %) qayd etildi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'naviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 91,1 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 68,4 % ni tashkil etdi.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Xizmatlar hajmi  
91,1 mlrd.so'm



O'sish sur'ati  
168,4 %

Shahar va tumanlar orasida Buxoro shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 79,1 % ni tashkil etdi. Buning sababi, ta'lim muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Buxoro shahrida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 72,1 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahrida - 176,3 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (174,9 %), Buxoro (166,9 %), Peshko' (155,8 %) va Kogon (154,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida  
ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlari, %**

Buxoro viloyati - 168,4 %	
 Eng yuqori o'sish sur'ati	 Eng past o'sish sur'ati
Buxoro sh. - 176,3 %	Romitan tumani - 145,5 %
Qorovulbozor tumani - 174,9 %	Jondor tumani - 145,2 %
Buxoro tumani - 166,9 %	Qorako'l tumani - 138,5 %
Peshko' tumani - 155,8 %	Shofirkon tumani - 133,5 %
Kogon tumani - 154,1 %	Olot tumani - 123,1 %
Vobkent tumani - 150,4 %	Kogon sh. - 117,7 %
G'ijduvon tumani - 148,1 %	


Eng past o'sish sur'atlari Kogon shahrida – 117,7 % qayd etildi.

2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 7,3 % ga o'sdi, hajmi esa 13,9 mlrd. so'mga oshdi va 74,5 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 88,1 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 11,9 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**

#### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 100,0 %**



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Buxoro shahrida 42,8 mlrd. so'm qayd etildi, 2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 8,2 mlrd. so'mga o'sish kuzatildi.

Eng kichik hajm esa Peshko' tumanida kuzatildi – 0,8 mlrd. so'm.


**2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1724,7</b>	<b>112,0</b>
Buxoro shahri	1015,8	114,0
Kogon shahri	62,0	105,6
tumanlar:		
Olot	42,3	106,7
Buxoro	63,1	108,6
Vobkent	57,6	110,7
G'ijduvon	183,1	108,9
Kogon	31,0	110,0
Qorako'l	50,8	106,5
Qorovulbozor	32,9	125,9
Peshko'	41,1	110,3
Romitan	56,5	108,8
Jondor	45,5	110,9
Shofirkon	43,0	108,3

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, shu jumladan xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi (YaHM) xarakterlanadi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi.

2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida (1015,8 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 114,0 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**




Shu bilan birga eng yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (125,9 %), Jondor (110,9 %) tumanlari va Buxoro shahrida (114,0 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Kogon shahrida (105,6 %), Qorako'l (106,5 %) va Olot (106,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida eng yuqori ulushlarni Buxoro shahri (58,9 %), G'ijduvon (10,6 %), Buxoro tumanlari (3,7 %) va Kogon (3,6 %) shaharlari egallaydi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %**



Shahar va tumanlar o'rtaida eng kichik ulushlar Kogon (1,8 %), Qorovulbozor (1,9 %), Peshko' (2,4 %) Olot (2,5 %) va Shofirkon tumanlariga (2,5 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 909,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich shahar va tumanlar o'rtasida Buxoro shahrida 3651,2 ming so'mdan Shofirkon tumanida 246,4 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

### **2019-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm**



Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

**Buxoro viloyati xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**65-223-79-41**